

**ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA O'XSHATISHLARNING
LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI TO'G'RISIDA**

*Imomova Ismigul Sirojiddinovna
O'qituvchi*

Annotatsiya

Maqolada o'xshatish vositalarining lingvistik xususiyatlari badiiy matn doirasida o'rganildi, misollar keltirildi va izohlandi. O'xshatishlar haqida bir qancha olimlarning ilmiy qarashlari muhokama qilindi. Abdulla Qahhor hikoyalaridagi o'xshatishlarning o'ziga xos xususiyatlari misollar orqali ochib berildi.

Kalit so'zlar: *Lingvopoetika, o'xshatish san'ati, o'xshatish etaloni, leksik vositalar, go'yo, xuddi, singari, xususiy o'xshatish, ekspressivlik, an'anaviy o'xshatishlar, xususiy-muallif o'xshatishlari*

Bugungi kunga kelib, dunyo tilshunosligida tilni nazariy jihatdan o'rganishdan ko'ra undan foydalanuvchi shaxsning tildan foydalanish qobiliyati – nutqi, yoshi, kasb-kori, jinsi kabilar bilan bog'liq holda o'rganishga e'tibor kuchaymoqda. Buning natijasida esa tilshunoslik sohasiga yangidan-yangi yo'nalishlar kirib kelmoqda. Masalan, psixolingvistika, sotsiolingvistika, neyrolingvistika, etnolingvistika, matn tilshunosligi, kompyuter tilshunosligi kabi. Bularga qo'shimcha tarzda lingvopoetika ham yangi yo'nalish sifatida o'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab rivojlana boshladi.

Lingvopoetika bo'yicha bugungi kunga qadar ko'plab ilmiy ishlarning amalga oshirilganligi ham tilshunoslikning bu sohasi amaliy jihatdan muhimligidan dalolatdir. Xususan, jahon tilshunosligida A.Xolodovich, G.O.Vinokur, V.M.Jirmunskiy, B.A.Larin, Y.S.Stepanova, R.A.Bugadov, A.A.Lipgart va shu kabi ko'plab olimlar ish olib brogan. O'zbek tilshunosligida ham lingvopoetika bo'yicha salmoqli tilshunos va adabiyotshunoslar ma'lum bir yozuvchi asarlarining lingvopoetikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib brogan.

O'xshatishlar eng qadimgi davrdanoq keng qo'llanib kelinayotgan muhim tasviriy vositadir. Chunki insoniyat barcha davrlarda ham ma'lum bir voqea-hodisa, jarayon, harakat-holat yoki belgini aniqroq ifodalash uchun uni analogiya asosida boshqa voqea-hodisa, jarayon, harakat-holat va belgidan foydalanib tasvirlab bergan. O'xshatishlar nafaqat tasviriy vosita, balki til egasi bo'lgan xalqning tafakkur tarzini ko'rsatuvchi, olamni bilish, tevarak-atrofnii idrok etish va bundagi milliy o'ziga xosliklarini namoyon etuvchi o'ta muhim lisoniy vosita hamdir.

Prof. N.Mahmudov asosli ta'kidlaganidek, o'xshatishlar insonlarning obrazli tafakkur tarsi mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha

badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi¹.

Ijodkorning lisoniy mahorati, eng avvalo, badiiy tilining o'ziga xosligi, individualligi bilan baholanadi. Shu jihatdan, yozuvchi Abdulla Qahhorning o'xshatishlardan foydalanish salohiyati ham u qo'llagan, "ijod etgan" individual o'xshatishlarda, xususan, bu o'xshatishlar etalonining qanchalik original ekanligida va mazkur o'xshatishlarning badiiy tasvirga qay darajada muvofiq kelganligida bor bo'y-basti bilan ko'rinadi.

O'xshatish usuli narsa, voqea-hodisa, tushunchani ikkinchi bir shu xildagi umumiylikka ega bo'lgan narsa, voqea-hodisaga qiyoslash, o'xshatma qilish yordamida ish ko'radi. O'z asarlarida V.V.Vinogradov shunday deb yozgan edi: "Taqqoslash frazeologik tuzilmalarning alohida turi bo'lib, unda iboraning ichki shartliliigi obrazning an'anaviy milliy xususiyati, isbotlangan aniqligi bilan belgilanadi".

I.M.Sechenov: "Insonning his-tuyg'ulari bilan idrok etadigan va uning aqliy faoliyati natijasi bo'lgan hamma narsa (dunyoning yaxlit tasvirlaridan tortib individual belgilar va xususiyatlargacha, voqelikdan ajratilgan konkret taassurotlargacha) ongimizni assotsiativ tarzda bog'lanishi o'xshatish hisoblanadi".

O'xshatishni hosil qilishda ma'lum unsurlardan foydalaniladi. Ammo shu unsurlarning qo'llanishi bo'yicha turli olimlar turlicha fikrlari mavjud. Masalan, Ma'rufjon Yo'ldoshev o'zining "Badiiy matnning lisoniy tahlili" kitobida quyidagicha yozadi: "Adabiyotlarda har qanday o'xshatish munosabati tilde ifodalanar ekan, albatta, to'rt unsur nazarda tutiladi, ya'ni: 1) o'xshatish subyekti; 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatishning shakily ko'rsatkichlari". Bundan ko'rinib turibdiki, Ma'rufjon Yo'ldoshev bu unsurlarni to'rt guruhga ajratgan².

J. Lapasov esa o'zining "Badiiy matn va lisoniy tahlil" qo'llanmasida esa o'xshatish uchun uch unsur ishtirok etishini aytib, ular 1) o'xshatilgan shaxs yoki unsur; 2) o'xshatish asosi; 3) o'xshatish vositasi³ deb ta'kidlaydi.

O'xshatish hosil qiluvchi leksik vositalar: kabi, singari, go'yo, xuddi, misli, misoli, bamisli ko'makchilari hisoblanadi. -day (-dek), -simon, ona -larcha va boshqa ko'pgina qo'shimchalar o'xshatish hosil qiluvchi grammatik vositalardir. O'xshatishlardagi nutqiy obrazlikni oshiruvchi asosiy xususiyat favqulotda o'xshatilishdir. Abdulla Qahhor hikoyalarida ham o'xshatishlardan keng foydalanilgan. Masalan: *U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi*. Ushbu gap Abdulla qahhorning "Bemor" hikoyasidan olingan bo'lib, Sotiboldining xotini qattiq betob bo'lib qoladi va uning yonida turgan Sotiboldi burov solingan

¹ Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – T.: Mumtoz so'z, 2017.

² Ma'ruf Yo'ldoshev. "Badiiy matn lingvopoetikasi"

³ J.Lapasov. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O'qituvchi

kishiday talvasaga tushadi. Adibning “Dahshat” hikoyasida ham o’xshatishlardan keng foydalanilgan: *Yaqin ikki haftadan beri ko’z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g’uvillaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi. Bunday kechalarda odamzot qo’ymijoz g’uj bo’lib va nimanidir kutib jimgina o’tirishni xohlab qoladi. Insonning xislatlarini qo’ymijozga qiyoslaydi.*

Bundan tashqari yozuvchi hikoyalarda individual-muallif o’xshatishlarining yana ko’plab o’ziga xos namunalariga duch kelamiz: *Qo’qonga tush mahalida kirib keldik. Ko’chalarda odam ko’p, xuddi Yaypanning bozor kuniga, yo’q, hayitga o’xshaydi. Men javob qilolmadim, qarasam, boshqa bolalar ham urmoqchi bo’lib, ilonni ko’rgan chumchuqday atrofimda chug’urlashib turishibdi. Dodxohday odam go’riston deganda tizzasi qaltirasa, biroq “olamga podsho qilaman” degan taqdirda ham bormasa, borolmasa-yu, bu qiz mushtday boshi bilan, “arziydigan narsa bo’lsa men boraman” desa! Hamma o’tirgan yerida go’yo bir qarich cho’kkanday bo’ldi va tin olmay bir-biriga qaradi. Yonida o’tirgan kundoshi tirsagi bilan biqiniga ikki-uch turtgandan keyin, Unsin boshini ko’tarib, balo-qazoday tikilib turgan dodxohga bir ko’z tashladi-yu, yana boshini egib, lekin dadil javob berdi. Unsin boyagi gapni duoday tez-tez qaytarib, qo’rquvni o’ziga yo’latmayotgan bo’lsa ham, ko’ngliga “o’likning qornimikin” degan gaplar keldi-yu, yuragi orziqib, oyog’ini darrov sug’urib oldi va chuqurda qolgan bir poy kavushini olgani yurak qilolmay mahsichan ketaverdi (“Dahshat”).*

Yozuvchining hayot hodisalarini kuzatish orqali yangi o’xshatishlar yaratish mahorati quyidagi parchada ham yaqqol namoyon bo’ladi: *Nazirbuvi sandalning chetida, derazadan tushib turgan erta bahor oftobiga sho’rvada pishgan olmadek yuzini tovlab, to’yan qo’zichoqday uxlab yotar edi; bu tovush qu’log’iga kirib, xuddi pashsha qo’riganday, bir lunjini qimirlatdi; ko’zini ochmoqchi bo’lgan edi, faqat bittasi ochildi. Men hali boshqa narsani o’ylab o’tiribman; beshta nozanindek kampir bo’lsagu bir quti desak butun tumanga kalaka bo’lmaymizmi? (Kampirlar sim qoqdi)*

Ta’kidlash lozimki, Abdulla Qahhor o’z hikoyalarda o’xshatishlarning lisoniy-badiiy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan. Adibning o’zi yaratgan o’xshatishlari esa originalligi, tasvirlanayotgan voqelikka uyg’unligi, obrazligi bilan alohida ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – T.: Mumtoz so’z, 2017.
2. Ma’ruf Yo’ldoshev. “Badiiy matn lingvopoetikasi”
3. J.Lapasov. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O’qituvchi
4. O’tmishdan ertaklar: qissa va hikoyalar / Abdulla Qahhor. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017, - 400 b.